Annotatsiya: Maqolada chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishda klaster yondoshuvining afzalliklari ko'rsatilgan. O'zbekiston chorvachiligi raqobatbardoshligini oshirishda chorvachilik tarmog'ini klasterlash masalalarini tadqiq qilish bugungi kunda dolzarbdir.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, chorvachilik kompleksi, klaster siyosati, logistika, infratuzilma, integrator.

Abstract: Some issues of clustering in livestock farming. The article discusses the advantages of the cluster approach in the livestock industry. This issue is relevant today, since the policy of clustering, in order to ensure increased competitiveness of the regions of Uzbekistan, has not been sufficiently studied.

Key words: Agriculture, animal husbandry, livestock complex, cluster policy, logistics, infrastructure, integrator.

Аннотация: В статье рассматриваются преимущества кластерного подхода в животноводческой отрасли. Данный вопрос актуален на сегодняшний день, так, как, политика кластеризации, в целях обеспечения повышения конкурентоспособности регионов Узбекистана, недостаточно исследована.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, животноводство, животноводческий комплекс, кластерная политика, логистика, инфраструктура, интегратор.

KIRISH

Chorvachilik va qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash-mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulotlar assortimentini ko'paytirish, xom ashyoni chuqur qayta ishlash texnologiyalarini o'zlashtirish va joriy etish ishlari bajarilganda amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiyotning agrar sektorida bu maqsadlarga erishish uchun samarali klaster boshqaruv tizimidan foydalanish zaruriyati yuzaga keldi va uni amaliyotga joriy etish 2017-yildan boshlandi. Shu munosabat bilan ilmiy maqolada chorvachilikning iqtisodiy ko'rsatkichlarini ularning o'zgarish tendensiyalarini hisobga olgan holda o'rganish, mintaqa doirasida klaster boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Maqola ochiq materiallar, ilmiy nashrlar va Internet axborot resurslari manbalari asosida tayyorlangan va unda analiz va sintez, deduksiya va induksiya kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

M.Porter klasterga "geografik joylashuv, o'zaroharakat, ixtisoslashuv, innovatsiyalar kabi omillar birlashuvidan foydalanish imkonini beruvchi tashkilotlarni birlashtirishning yangi modeli" sifatida qaraydi ^[1]. Olimning fikricha, mamlakatning raqobatbardoshligiga uning alohida kompaniya, firma va korxonalarining emas, balki klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi prizmasi orqali qarash kerak bo'ladi, bu yerda klasterlarning ichki resurslardan samarali foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston chorvachilik tarmog'ida klasterlash, raqobat muhitini rivojlantirishning muammolari, bozor sharoitida chorvachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror o'sish masalalari hali yetarlicha o'rganilmagan. Shu munosabat bilan zamonaviy sharoitlarda chorvachilik tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan nazariy, amaliy va uslubiy xulosalar ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Yetakchi qishloq xo'jaligi mamlakatlari rivojlanishining hozirgi tendensiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston agrosanoat majmuasini yanada rivojlantirish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish va agrobiznesni rivojlantirish uchun teng, qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilishi kerak.

Butun kunda O'zbekiston qishloq xo'jaligini klasterlash metodologiyasining dastlabki va asosiy sharti barcha toifadagi xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mavjudligi hisoblanadi. Ushbu munosabatlarni deyarli har qanday qishloq joylarida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir, yetuk, rivojlangan klasterlar bo'lgan qat'iy o'zaro bog'liq tizimlarni yaratish vazifasi muhimdir. Mamlakatning butun qishloq xo'jaligini klasterlash metodologiyasining dastlabki va asosiy sharti barcha toifadagi xo'jaliklar o'rtasidagi munosabatlarning mavjudligi hisoblanadi. Mintaqaviy klasterning ishlash mexanizmi va ishlab chiqarish jarayoni nafaqat yirik korxonalarni, balki kichik va o'rta biznesni ham jalb etgan holda, aholining yuqori turmush darajasi va sifatini ta'minlovchi raqobatbardosh va investitsion jozibador iqtisodiyot modeliga asoslanadi.

Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida sohada chorvachilik klasterlari, chorvachilik komplekslarini faoliyat ko'rsatishi yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilmoqda.

Hozirgi davrda chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish quyidagi chorvachilik subyektlari tomonidan amalga oshirilmoqda: chorvachilik klasterlari; chorvachilik komplekslari (shu jumladan, paxta-to'qimachilik, g'allachilik va sholichilik klasterlarining chorvachilik komplekslari); chorvachilik fermer xo'jaliklari; dehqon xo'jaliklari; tomorqa egalari va boshqa qishloq xo'jalik korxonalari. Masalan, "G'ofurjon dehqon"(MChJ-Farg'ona viloyati) chorvachilik kompleksida Chexiya, Daniya, Germaniya, Avstriya davlatlaridan keltirilgan ming boshga yaqin zotdor qoramollar parvarish qilinib, uning 300 boshini sog'in sigirlar tashkil etadi. Ulardan kuniga o'rtacha 27-28 litrdan sut sog'ib olinadi. Chorvachilik kompleksi tegishli 347 gektar ozuqa maydoniga ega. Ozuqa ekinlarini yetishtirishda 4 dona traktor, kombayn va ozuqani yetishtirish, yig'ib olish va saqlashda zarur bo'lgan 10 turdagi agregatlardan unumli foydalaniladi. Chorvachilik kompleksida 10 tonna sutni qayta ishlab sariyog', pishloq kabi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan liniyasini ishga tushirish loyihalashtirilgan¹. Kompleksda qoramollarni boqish, sut sog'ish, oziqlantirish, chiqindilardan tozalash bilan bog'liq barcha jarayonlar avtomatlashtirilgan. 60 nafardan ziyod ishchi faoliyat ko'rsatayotgan chorva kompleksida jarayonlar to'liq zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Chorvachilik tarmog'ining holatini tahlili tarmoq raqobatbardoshligining "o'sish nuqtalari"ni aniqlash imkonini beradi. Agrosanoat zonalari hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, chorva naslchiligi va urug'chiligi xo'jaliklari, reproduktiv korxonalar, ilmiy, tajriba-ishlab chiqarish va o'quv xo'jaliklari joylashgan aholi punktlaridan "o'sish nuqtalari" sifatida foydalanish mumkin. Agrosanoat zonalari qishloq xo'jaligi va infratuzilmasi rivojlangan yoki ularni kelajakda rivojlantirish salohiyatiga ega bo'lgan hududlarda tashkil etiladi.

Chorvachilik klasterining fermer xo'jaliklarida poda tarkibi "go'shtga yo'naltirilgan", "sutga yo'naltirilgan" va "sut-go'shtga yo'naltirilgan" bo'lishi mumkin. Respublikamiz chorvachiligida "sut-go'shtga yo'naltirilgan" chorvachilik fermer xo'jaliklari yetakchi o'rinni egallaydi. Chorvachilik klasteri – bu, qoramolchilikni rivojlantirishga ixtisoslashgan fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari, qishloq xo'jalik korxonalarining o'zaro harakatlarning ochiq tizimidir^[2]. Ular kooperatsion aloqalar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini boshqarish funksiyasini bajaruvchi integrator – kompaniya atrofida quriladi.

O'rganishlar, mintaqaning raqobatbardoshligi "iqtisodiy potensial, undan foydalanishning samaradorligi va raqobatli ustunliklari" kabi uchta ko'rsatkich bloklari bo'yicha qiyosiy tahlil qilinib va uning asosida klaster shakllantiriladigan mintaqani aniqlanishini ko'rsatadi. Nazariyaning qayd etilgan xususiyatlari mintaqaviy klasterni "geografik va texnologik o'zarobog'langan raqobotlashadigan korxonalar guruhining uzluksiz innovatsion jarayonlarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish yoki xizmatlar uchun birlashuvi" kabi asoslaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Klaster – bu innovatsion faol bo'lgan korxonalarining doimiy konsentrasionalashib borishidir. Innovatsion faollik, firma va korxonalar faoliyatlarini innovatsion rivojlanishga yo'naltirilishini nazarda tutadi. Klasterga oid tadqiqotlarda klaster tarkibini aniq ifodalash uchun zarur bo'ladigan o'zaro aloqalarni – gorizontal va vertikal kabi ikki turi ajratib ko'rsatiladi^[6-10].

Klasterga oid tadqiqotlarda klaster tarkibini aniq ifodalash uchun zarur bo'ladigan o'zaro aloqalarni – gorizontal va vertikal kabi ikki turi ajratib ko'rsatiladi^[11-15]. Klaster tarkibini asosiy bosqichlari: yirik korxonalarni yoki ularni konsentrasionalashuvini tahlil etish; boshqa korxonalar bilan vertikal o'zaro aloqalarni tahlil etish; tarmoqlarni gorizontal aloqalarini tahlil etish; maxsus texnologiyalarini, kapitalni, axborotlarni, infrastrukturallarni generatsionalovchi korxonalarini tahlil etish; klasterning birlashgan rezidentlarini tahlil etish; klaster doirasida, klasterni samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi davlat organlari faoliyatini tahlil etishdan iborat bo'lishi lozim.


1 Чорвачилик-кут-баракa манбай https://uza.uz/uz/posts/chorvachilik-qut-baraka-manbai_503734?q=%2Fposts%2Fchorvachilik-qut-baraka-manbai_503734

Ekspert baholashlariga ko'ra, chorvachilik klasterlari vertikal ishlab chiqarish zanjiridagi (mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash) bo'g'inlarining o'zaro harakatlar tamoyiliga muvofiq ishlaydi. Demak, bunda qo'shni ishlab chiqarish bo'g'inlari klaster yadrosining asosini tashkil etadi. Klaster yadrosini har bir bo'g'ini o'z navbatida mahsulotlar ishlab chiqaradigan va bozorga taqdim etadigan turli xil mulkchilik shakliga ega turli xil ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni o'z ichiga oladi. Klaster yadrosi atrofida qolgan hamkorlar shakllantiriladi [3].

Klaster yondashuvida, birlashuv quyidan boshlangan tashabbus bilan amalga oshiriladi. Bunda har bir ishtirokchi (hamkor) nafaqat birlashmaning, balki ularning har birining raqobatbardoshligini oshirish uchun birlashmada ishlash zarurligini tushunadi. Klaster, yangi ishtirokchilar uchun samarali rivojlanish va qishloq joylarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun real imkoniyatlar yaratib boradi. Bu, ayniqsa, davlatdan subsidiyalarini olib, o'z ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish biznesini boshlaganlar uchun zarur hisoblanadi. Ko'p hollarda chorvachilikda faoliyat ko'rsatadigan kichik subyektlarda ozuqa va yosh hayvonlarning yetishmasligi kuzatiladi. Bunday imkoniyatlar bilan o'sish raqobatbardosh mahsulotlar yaratish deyarli mumkin emas, shuning uchun bu jarayonda manfaatdor hamkorlarning yordamlari amalga oshiriladi. Klaster bo'g'inlari va subyektlarini alohida faoliyat ko'rsatish munosabati bilan ishlab chiqarilgan mahsulot va tovarlarni narxlarini shakllantirish va vertikal-gorizontalligiga bir-biriga o'tkazishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Har bir subyekt o'z mahsulotlari, tovarlari yoki xizmatlari uchun yuqori narxni olishga va har bir keyingi subyekt esa ularni kamaytirish uchun harakat qilishi kuzatiladi. Chorvachilikda yuzaga keladigan bunday holatlar shartnomaviy munosabatlar bilan tartibga solinadi.

Chorvachilik sohasi har xil quvvatga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar (chorvachilik fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va tomorqa egalari) birlashtirilganda, har bir bo'g'in doirasida raqobat munosabatlari paydo bo'ladi. Ma'lumki, yirik chorvachilik kompleksi yoki chorvachilik fermer xo'jaligida ishlab chiqarish tannarxi kichik xo'jalik subyektlariga nisbatan pastroq bo'ladi. Shu boisdan yirik chorvachilik tuzilmalari orqali klasterni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Klaster tarkibidagi kichik subyekt xo'jaliklari e'tiborini, o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, mehnat, texnik va texnologik yechimlar orqali xarajatlarni kamaytirishga qaratadilar. Shu bilan birga, kichik fermer xo'jaliklari mahalliy aholini ish bilan ta'minlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Chorvachilik klasterini barqaror rivojlanishi – kichik chorvachilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash – ularni yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini bilan integratsiyalashuvida namoyon bo'ladi.

O'rganishlar, chorvachilik klasterida yirik xo'jaliklari kichik fermer xo'jaliklariga ozuqa, yosh hayvonlarni ko'paytirish va boqish, shuningdek, hayvonlarni parvarish qilishda yordam berishdan manfaatli afzalliklarga ega bo'lishini ko'rsatadi. O'zaro manfaatli munosabatlar klasterning ishlab chiqarish va qayta ishlash doirasida ham, mahsulotlarni bozorida sotishda ham raqobatbardoshlikni rivojlantirishga bevosita yordam beradi. Klasterning har bir bo'g'ini ishtirokchi-hamkorlarga o'z ta'sirini o'tkazab boradi. Masalan, klasterning "sotish" bo'g'ini "qayta ishlash" bo'g'inidan sifat va assortimentni oshirishni, o'z navbatida "qayta ishlash" bo'g'ini esa "mahsulot ishlab chiqarish" bo'g'inidan xomashyoning miqdori va sifatini oshirish talablarini qo'yadi (1-rasm.).



1-rasm: Chorvachilik klasterini gorizantal va vertikal bog'lanishi sxematik ko'rinishi (Muallif ishlanmasi)



Chorvachilik klasteri – o‘zaro bog‘langan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tuzilmalarining murakkab zanjiri bo‘lib, ularning zamonaviy integratsiyalashuvi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatdoshligining oshishiga asos bo‘ladi. Bozorda raqobatbardoshlik – taqdim etilayotgan mahsulotning sifat va bahosi bilan belgilanadi, o‘z o‘rnida mahsulot bahosi uning tannarxga bog‘liq bo‘lib, bahoning tannarxdan past bo‘lishi bankrotlikka olib keladi. Barcha sohalarda bo‘lgani singari, chorvachilik klasterining asosiy vazifalaridan biri ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishdir. Chorvachilik klasterida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, innovatsiyalar, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni qo‘llash, mavjud resurslardan samarali foydalanish va investitsiyalarni jalb etish evaziga erishiladi. Go‘sh va sut tez buziladigan va saqlash muddati uncha uzoq bo‘lmagan mahsulotlar toifasiga kiradi. Shu boisdan iste‘molchilarga go‘sh-sut va ularni qayta ishlangan mahsulotlarini yangi, sof holda saqlangan holda taqdim etishni taqozo qiladi. Shuning uchun chorvachilik mahsulotlarni katta muzlatkichlarda saqlash, istemolchilarga yetkazib berish va sotish bo‘yicha xizmatlar muddati vaqt birligi bilan chegaralanadi. Infrastrukturaga bo‘g‘inini transport tizimi ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va tijorat faoliyatining barcha bosqichlarida bog‘lovchisi bo‘ladi va har qanday mahsulotning bozor narxida sezilarli ulushga ega bo‘ladi. Klasterning yakuniy bo‘g‘ini “iste‘molchi”si – inson bo‘lib, u iqtisodiy tovarlarni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste‘molchi hisoblanadi. Iste‘molchilar talab va taklifni shakllantiradi. Iste‘molchi mintaqa yoki hududning aholisi, shu bilan birga u ishchi kabi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tijorat jarayonlarining ishtirokchisidir. Shu boisdan, klaster va umuman bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi iste‘molchi oladigan daromad bilan belgilanadi. Daromad aholi bandligiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, uni ta‘minlash klasterning asosiy vazifalaridan biri bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Chorvachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishning asosi bo‘lgan hududiy klaster modelining ilmiy nazariyasi to‘liq ma‘noda quyidagi metodologik muammolarni hal qilishni taqozo etadi: iqtisodiyotni klasterlashtirishni o‘rganishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini umumlashtirish; hududdagi chorvachilik tarmog‘ining hozirgi holatini baholash; chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va parvarishlash bilan shug‘ullanuvchi korxonalar (chorvachilik komplekslari, chorvachilik fermer va dehqon xo‘jaliklari, tomorqa egalari) faoliyati samaradorligini aniqlash; chorva mollari podalarining tarkibi va podalardagi qoramollarning jins-yosh guruhlaridagi harakati; pada tarkibidagi chorva mollari jins-yosh guruhlari uchun ilmiy asoslangan oziqa rasionlarini tuzish.

Klasterlar faoliyati quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi: yangi texnologiyalarni joriy etish orqali klaster qatnashchilarining raqobatbardoshligini oshirish; turli hokimiyat tuzilmalarida klaster ishtirokchilarining manfaatlarini konsolidatsiyalangan lobbisi; yirik korxonalarni isloh qilish sharoitida aholi bandligini ta‘minlash; xarajatlarni kamaytirish va tegishli bilimlarni talab qiladigan samaradorlikni oshirishning sinergetik effektdan foydalanish va logistika, muhandislik, axborot texnologiyalari va boshqa yondashuvlarni birlashtirish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- Porter M. Building the Microeconomic Foundations of Prosperity: Findings from the Microeconomic Competitiveness Index. // The Global Competitiveness Report 2002. – New York: Oxford University Press for the World Economic Forum, 2002. – pp. 23-45.
- Мавлянов М.Т. (2019). Чорвачиликни ривожлантиришда оптималлаштириш усулларини қўллашнинг афзалликлари // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги “Эл-юрт умиди” жамғармасининг “UzBridge” электрон журнали. 2-сон. Октябрь, 2019 йил. 12–26 б. uzbridge.eyuf.uz http://uzbridge.eyuf.uz/maqolalar/Maqola_2_son_2019.pdf
- Андреев А.В. Формирование агропромышленных кластеров в мясном подкомплексе на уровне региона. “Животноводство и молочное дело” Вестник СГТУ. 2012. –№ 1 (63). Выпуск 1. <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-agropromyshlennyh-klasterov-v-myasnom-podkomplekse-na-urovne-regiona>
- Эшов М. (2023). Логистика хизматларини ташкил этиш ва бошқариш тизимини такомиллаштириш. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 9–16. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp> https://inlibrary.uz/index.php/development_economy/article/view/16259
- Саидахмедов У. Кластер назарияси ва унга амалий ёндашувлар. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 4 № 2 (2023) / ISSN 2181–1415 DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp51-56> <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
- Мавлянов М., & Урдушев Х. (2024). КЛАСТЕРНЫЙ ПОДХОД: ПРЕИМУЩЕСТВА ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N05>
- Мавлянов М. (2023). КЛАСТЕР ТАСНИФИ ВА УНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. Conference on Digital Innovation: “Modern Problems and Solutions”. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/2209>.



8. Khamrakul Urdushev, Majid Mavlyanov, Sirojiddin Eshankulov. (2020). Issues of clustering agriculture in Uzbekistan. *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal* 10(10):1180. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 10, October 2020 DOI:10.5958/2249-7137.2020.01261.6
9. Урдушев Х., Мавлянов М., & Эшанкулов С. (2023). АГРОКЛАСТЕРЛАРНИ ТАСНИФЛАШГА ЁНДАШУВЛАР, МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ ВА СИНФЛАНИШИ. *Nashrlar*, 1(2), 305–309. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/435> <https://doi.org/10.60078/2023-vol1-iss1>.
10. Урдушев Х. (2023). АГРОСАНОАТ КЛАСТЕРЛАРИ ТИЗИМ СИФАТИДА. Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions". извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/2112>
11. Урдушев Х., Мавлянов М., Эшанкулов С. и Розиева Г. (2023) "Агрокластеры и место цифровых технологий в их развитии". *Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), сс. 115–125. DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N15>.
12. Хамракул Урдушев, Маджид Мавлянов, Сирожиддин Эшанкулов. Кластерлар қишлоқ хўжалиги ва чорвачилиқда хўжалик юритиш фаолиятини замонавий усуллари сифатида. Samarkand branch of Tashkent State Agrarian University Theoretical and practical foundations of introducing smart agriculture in Uzbekistan. Volume 4 | SamTSAU Conference | 2023. <https://cyberleninka.ru/article/n/klasterlar-ishlo-h-zhaligi-va-chorvachilikda-h-zhalikyuritish-faoliyatini-zamonaviy-usullari-sifatida>.
13. Khamrakul Urdushev; Khudaynazar Yunusov; Sirojiddin Eshankulov. (2021). Analysis of the Current State of the Economy of Fruit and Vegetable Clusters in Uzbekistan. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding (IJMMU)*. ISSN 2364 – 5369. Volume 8, Issue 5, May, 2021. Hamburg, Germany Pages: 321 – 329. <https://ijmmu.com/index.php/ijmmu/article/view/2673>.
14. Урдушев Х., Эшанкулов С., Мавлянов М.Т. (2022). Кластерлар интеграциялашган тузилма сифатида. *Veterinariya va chorvachilikda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari* nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, 2022-yil. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/4801/4328>.
15. Khamrakul Urdushev. (2021). About Formation of Agrarian Clusters in Uzbekistan. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding(IJMMU)*. <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v8i11.3222> ISSN 2364-5369, Vol 8, No , November 2021.Hamburg, Germany Pages:409-415. Impact Factor: SJIF=6.862. <https://ijmmu.com/index.php/ijmmu/article/view/3222>.



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.